

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI



### Abstract:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari haqida va o'quvchilarga uslubiy ta'lim-tarbiya beruvchi metodlar haqida ham yoritib beriladi.

### Key words:

Boshlang'ich ta'lim, metodika, o'qituvchi, o'quvchi, ona tili,

### Author of the article:

Orinbayeva Lalezar  
Azadbay gizi

### Workspace (Education subject)

Toshkent shahar.Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

Kirish: Boshlang'ich ta'limda ona tili metodikasi kata ro'l o'ynaydi. Metod aslida yunoncha „metodos“ so'zidan olingan bo'lib, „bilish va tadqiqot yo'li“, „nazariya“, „ta'limat“ kabi ma'nolarni bildiradi. Ona tili — boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti sifatida Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinim alarni ifodalashda muhim o'rinn tutadi. Til jam iyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilaming o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. M aktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

#### Asosiy qisim

1. Metodika (yurt, „methodike“) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'lomit

2 — ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lum va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazm unini belgilaydi, ta'lum-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lum berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazm unini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta'lum mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanm alar yaratib, ularni takomillashtirib, sam aradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlaming izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni „Q anday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlab beradi.

# «Development of science» international conference

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikm a hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarini hal qiladi, ya'ni „Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, m etodlarni o'rganadi, tanlangan m etodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbigan (muvofig ravishda) o'rgatadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasining emas, balki xatsavod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining m azm uni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning (xat-savod o'rgatish, o'qish, gram matika, imlo, nutq o'stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini ham da bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiiklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilaishga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilam ing umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan m etod va vositalarni ishlab chiqish;

e) ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish. Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikm a va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklam i bartaraf etish usullarini topadi. Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilam ing o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jam iyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, m antiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordam idagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani m uhokam a va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallah va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi m unosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergen vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a 'zolari bilan erkin m uloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid m etod va usullami ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan um umiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to 'g'ri yozuv va to 'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to 'g'ri talaffuz va to 'g'ri yozuvni elem entar nazariy m a'lum otlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarni kuzatish, tahlil qilish orqali elem entar nazariy qoidalar chiqaradilar,

# «Development of science» international conference

o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. M aktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham , hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. „Ta'lim to 'g'risida“gi qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi: — ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; — ta'larning uzlusizligi va izchilligi; — um um iy o'rta , shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta 'lim ining m ajburiyligi; — o'rta maxsus, kasb-hunar ta 'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi; — ta 'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; — davlat ta 'lim standartlari doirasida ta'lim olishning ham m a uchun ochiqligi; — ta 'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; — bilimli bo'lismi va iste'dodni rag'batlantirish; — ta'lim tizimida davlat va jam oat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta 'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridaq m aqsadlar asosida ish yuritadi. Um um iy o'rta ta 'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'limg'ich —4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'larning yangicha tizimini va m azm unini shakllantirish uchun quyidagilar zanir: — o'quvchilam ing qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta 'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish; — ta 'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmularini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo. Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta 'kidlangan ko'rsatm alar, uzlusiz ta'limg'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta 'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergen qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalaming qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predm etlardan, shu jum ladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir. Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta 'limidagi har bir o 'quv predmeti, shu jum ladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikm a va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalaming dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatları o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tom ondan rivojlanadi, xarakterida m a'lum ijobjiy xususiyatlar yuzaga keladi, m ehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tom onlam a rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tom ondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarini ilmiy tom ondan ishlab bergen m a'lumotlariga tayanadi. Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagagi o'quvchilam ing jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotcnilik, jam oa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tom onidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning hunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab radi. O'qituvchi pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga 'eatishni ta'limg'-tarbiya jihatidan foyda keltiradigan qilib uyushtira di. Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining m a'lum qismini nazariy ^gallashni

# «Development of science» international conference

nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, grammatika — morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elem entar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi. Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning m a'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to 'g 'ri tashkil etish uchun juda muhimdir. So'zning tarkibi va so'z yasalishini o'rganishda metodikaga so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har m onlam a rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyas asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar um umdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv m ehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi. Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar.

1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. N utq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta 'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta 'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta 'minlashni va nutq organlarini m ashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagagi ma'lum voqeа-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til m a'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksissni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning m a'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari birbiri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirm ay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligi baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, m azm uninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yоqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa m atn m azm uni va uning o'ziga xos „noziklik“larini ham anglab yetishga yordam beradi.

# *«Development of science» international conference*

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir"<sup>5</sup>, — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikm a-m alakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilam ing o'quv m ehnatinining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikm alarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

## Xulosa

Darhaqiqat Ona tili boshqa fanlami o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rinn tutadi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

## Foydalilanigan adabiyotlar

- 1 <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/01/Ona-tili-oqitish-metodikasi.pdf>
- 2 <https://kompy.info/boshlangich-sinflarda-ona-till-oqitish-metodikasi-fanining-pre.html>